

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXN OLOGIYALARI VA
TELEKOMMUNIKATSIYALARNI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“Ta`limda multimedia texnologiyalari” fanidan

KURS ISHI

**MAVZU: MACROMEDIA DREAMWEAVER 8 DASTURIDA WEB
SAHIFA UCHUN FORMA YARATISH**

Gurux: 650-13

Bajardi: Umarov Hasan.

Raxbar: Pozilova SH.

TOSHKENT 2016

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Fakultet : “AKT sohasida kasbiy ta'lim”
Kafedra : “Axborot ta'lim texnologiyalari”
Yo‘nalish : 5350400- “AKT sohasida Kasb ta'limi”

«TASDIQLAYMAN»
“ATT” kaf. mudiri

2016 y. « ____ » _____

Umarov Hasan Ilhom o`g`li

**MACROMEDIA DREAMWEAVER 8 DASTURIDA WEB SAHIFA UCHUN
FORMA YARATISH
MAVZUSIDAGI KURS ISHI UCHUN**

TOPSHIRIQ

1. *Ishni himoyaga topshirish muddati:* ” 06 ” dekabr 2016 yil.
2. *Ishga oid dastlabki ma'lumotlar:* ma'ruza matn, internet manbalari, dasturiy ta'minot, maxsus adabiyotlar, multimedia vositalari va texnologiyalari.
3. *Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining mazmuni* (ishlab chiqiladigan masalalar ro‘yhati: kirish, 1- bob – Macromedia Dreamweaver 8 dasturi, 2 - bob – Macromedia Dreamweaver 8 dasturining imkoniyatlari, electron o`quv kursini Macromedia Dreamweaver 8 dasturida yaratish, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati.
4. *Topshiriq berilgan sana:* 15.09.2016 yil.

Rahbar _____ (topshiriq oldim) talaba _____
(imzo) (imzo)

5.Kurs ishining har bir bo‘limida bajariladigan ishlarga maslaxatlar

Qism	Maslaxatchi o‘qituvchining F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq Berildi	Topshiriq olindi
Kirish Asosiy kism	Pozilova SH.	15.09.2016 y	15.09.2016 y

6.Ishni bajarish grafigi.

№	Ish qismlarini nomi	Bajarish muddati	Rahbar (maslaxatchi) belgisi
1	Masalaning qo‘yilishini ishlab chiqish	15.09.2016y	
2	Ishga doir ma'lumotlar bazasini yig‘ish	25.10.2016y	
3	I–bob. Ta’limni globallashuvi pedagogik muammo sifatida	1.11.2016y	
4	II–bob. Ta’limni globallashuvi sharoitida tarmoqli texnologiyalardan foydalanish shakllari	20.11.2016y	
5	Yakuniy xulosa ustida ishlash	25.11.2016y	
6	Dastlabki himoyasi.	26.11.2016y	
7	Himoya qilish.	06.12.2016y	

Rahbar _____ 2016 yil « ____ » _____

Talaba _____ 2016 yil « ____ » _____

Mavzu: Macromedia Dreamweaver 8 dasturida web sahifa uchun forma yaratish

Mundarija:

Kirish

I-BOB. Macromedia dreamweaver 8

1.1 Macromedia Dreamweaver 8 dasturi haqida

1.2 Macromedia Dreamweaver 8 dasturida formalar haqida

1.3 Macromedia Dreamweaver 8 dasturining ishchi muhiti

II-BOB. Macromedia dreamweaver dasturining imkoniyatlari

2.1 Elektron o`quv kursini Macromedia Dreamweaver 8 dasturida yaratish

2.2 Yaratilgan elektron darslikni o`quv jarayoniga tadbiq qilish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Oxirgi yillarda internet bizning hayotimizni juda qulaylashtirib berdi. O'zimizga tegishli korxonani qidirib topishimiz yoki kerakli sohada hamkorlar topish kabi ishlar internet vositasida juda osonlashdi. Hatto, savdo-sotiq ishlari ham internet bilan amalga oshayotgani sir emas. Hozirda deyarli har bir korxonaga, muassasaga, davlat idorasi deysizmi, har birining internetdagi sahifasiga ehtiyoj paydo bo'lmoqda. Chunki korxonaga haqida kerakli malumotni olish uchun uning binosi oldiga borib qabulga yozilish va kerakli odam bilan uchrashish ancha vaqtni oladi. Agar shu korxonaning veb-sayti bo'lsa-chi, kerakli ma'lumotni bir necha daqiqada olishingiz mumkin. Masalan sizga biror universitetning fakultetlari va o'qituvchilari haqida ma'lumot kerak. Buning uchun o'sha o'quv binosiga borishdan ko'ra uyingizdan o'tirib internet orqali shu ma'lumotni olish mumkin. Buning uchun albatta o'sha o'quv muassasaning internetdagi sayti bo'lishi lozim. Shuning uchun hozirda universitet va kollejlarda ham o'z veb-saytlarini tuzib internetga joylamoqdalar. Bundan tashqari, agar siz savdo – tijorat bilan shug'ullansangiz o'z mahsulotingizni internet orqali sotishingiz mumkin. Agar sizda ijodiy qobiliyatingiz bo'lib o'z fikr mulohazalaringizni internet orqali odamlarga bildirmoqchi bo'lsangiz, u holda "blog" deb ataluvchi shaxsiy veb-sayt ochishingiz mumkin. Bu orqali siz o'zingiz kabi hamfikr odamlar bilan muloqotda bo'lasiz. Hozirda internetga kiruvchilar soni kun sayin ko'paymoqda. Bir vaqtning ozida dunyoda millionlab insonlar internet tarmog'idan foydalanmoqda. Shuning uchun har qanday tadbirkor uchun ham ijodkor uchun ham internetda shaxsiy sayti bo'lishi juda muhimdir. Tadbirkor bo'lsangiz sizni korxonangiz va mahsulotingiz haqida odamlar malumot oladi. Ijodkor bo'lsangiz sizni ijodingiz bilan boshqalar ham tanishadi va hokazo .

Veb sayt nima? Veb (inglizcha Web) so'zi aslida o'rgimchak to'ri degan ma'noni bildiradi, internet tarmog'i hozirda xuddi o'rgimchak to'ri kabi bir biriga ulanib ketgan millionlab kompyuterlardan iboratdir. Sayt esa ana shu tarmoqda joylashgan va o'zida biror ma'lumotni jamlagan sahifalardir. Bu sahifalarda asosan matnlar (tekst), rasm, audio, video kabi malumotlar joylangan bo'ladi. Dunyoning istagan yeridan bularni ochish va ko'rish imkoni mavjud bo'ladi.

Veb saytlarning qanday turlari bor?

Bugungi kunda saytlarning turlarini aniq sanab aytish qiyin, chunki har sohada, har mavzuda saytlar ochilmoqda... Lekin asosiy turlarni sanab o'tamiz. Bular: - internet do'konlar (Masalan: amazon.com, souq.com, esavdo.uz, korzinka.uz va hkz)

- ijtimoiy tarmoqlar (facebook.com, ok.ru, vk.ru, muloqot.uz, twitter.com)
- Korxonaga, tashkilot saytlari (appla.com, ucell.uz, gov.uz, bank.uz)
- Shaxsiy saytlar (Mashur shaxslar, qo'shiqchilar, shoirlar, davlat arboblari haqidagi saytlar)

- Fotogallereyalar (flickr.com , shutterstock.com)
- Yangiliklar sayti yoki portal (islom.uz, kun.uz , darakchi.uz, ziyonet.uz)
- Qidiruv tizimlari (Google.uz, yandex.ru)
- Forum va chat (tforum.uz, forum.ziyouz.com, forum.islom.uz)
- Media mahsulotlari - Audio, videolar (mytube.uz, mover.uz, mp3.uz)
- Elonlar, umumiy savdo, yoki kataloglar sayti (torg.uz, glotr.uz, zor.uz, kplus.uz) va boshqa turdagi saytlar mavjud.

Veb sayt ochish nima uchun kerak?

Sayt ochish turli sohadagi odamlarga har xil maqsadlar uchun kerak boʻladi. Masalan, tadbirkorlar uchun oʻz korxonasining veb sayti boʻlishi bu – mijozlarga qulaylik tugʻdiradi. Hatto yangi mijozlar orttirishga sabab boʻladi. Chunki internetdan biror mahsulot yoki xizmat turini izlagan odam sizni veb saytingizga duch keladi va sizning korxonangiz bilan tanishadi. Agar siz ijodkor boʻlsangiz yoki ilm-fan bilan shugʻullansangiz, u holda oʻz sohangiz haqida veb sayt ochib bilimlaringizni boshqalarga ulashasiz. Yoki ijodingizni namoyish qilasiz. Oʻzingiz bilan hamfikir odamlar bilan tanishasiz. Savdo bilan shugʻullansangiz, tovar va mahsulotlaringizni oʻz saytingizga joylab buyurtmalar olishingiz mumkin. Mahsulotingizni odamlarga reklama qilasiz. Xullas, har qaysi soha egasi uchun bu kitobdagi bilimlar foyda beradi deb oʻylaymiz.

I BOB MACROMEDIA DREAMWEAVER

1.1 MACROMEDIA DREAMWEAVER 8 DASTURI

Macromedia Dreamweaver 8 - bu veb sahifa yaratish uchun eng qulay dastur hisoblanadi.

Bu dastur yordamida siz nimalarni amalga oshira olishingiz mumkin.

1. Bu dastur avvalo sizga HTML kodlarini o'zi kiritadi ya'ni siz kod kiritib o'tirishingizning hojati yo'q. Masalan. Biz HTML darslarini o'rganganda Windows ning Bloknotidan foydalangan edik va veb sahifaga rasm joylashtirish uchun `` qilib eng kamida kiritishimiz shart edi, endi esa shunchaki menyu qatoridan Insert > Image ga kirib kerakli rasmni tanlasak bas o'zi biz uchun bu kodlarni avtomatik tarzda kiritib boradi.

2. Bu dasturni siz nafaqat HTML yoki CSS lar uchun balki boshqa bir talay veb sayt uchun ishlov beriladigan dasturlar, ya'ni ColdFusion, PHP, ASP VBScript, ASP.NET, C#, JavaScript, XML, XSLT, kabilar uchun ham foydalanishingiz mumkindir.

3. Siz shuningdek bu dastur yordamida Internetdagi veb saytingizni nazorat qilishingiz mumkindir. Ya'ni siz HTML dokumentizga har qanday o'zgarishni kiritsangiz va "put file" qilsangiz sizni kiritgan o'zgartmangiz Internetdagi veb saytingizda ham o'zgaradi.

4. Hullas siz veb saytingiz uchun hamma-hamma narsani shu dastur yordamida bajarasiz. Aksariyat professional web masterlar shu dasturdan foydalanishadi, albatta bunga o'xshash boshqa web page editor programmalari ko'p masalan: Microsoft FrontPage, Adobe Pagemill, Adobe GoLive, NetObjects Fusion, CutePage, HotDog Professional, Netscape Composer va Arachnophilia, biroq Kompyuter Tehnologiyalariga ihtisoslashgan chet el universitetlarida ham birinchi o'rinda Macromedia Dreamweaver o'qitiladi. Bu dasturni o'rganishning eng oson yo'li bu biror veb sayt yaratib o'rganishdir. Biroq avvalo bu dasturning interfeysi bilan tanishib chiqsak. Quyida siz bu dasturning umumiy ko'rinishini ko'rib turibsiz. Dreamweaver 8 ning asosiy ko'rinish quyidagichadir. Asosiy oyna uchga bo'lingan va o'ng tarafda yordamchi panel joylashgan. Yuqorida HTML kodlar joylashgan, Markazda veb sahifa uchun ishlov berish joyi, va quyida Properties joylashgan. Siz asosan Markaziy va Quyi qismlardan foydalanasiz, shuning uchun ushbu




tugmalardan Design bo'limini tanlasangiz ham bo'ladi. Code bo'limi faqat HTML kod uchun, Split esa ikkalasi hamdir.

1.2 Macromedia Dreamweaver 8 dasturida formalar haqida

`<form>....</form>`

Hammamiz biron bir forma turiga internetda ko'p duch kelganimiz, hech bo'lmasa email ochganda bir talay o'zimiz haqimizda ma'lumotlarni mahsus katakchalarga to'ldirib chiqqanmiz. Bu galgi darsimiz ana shunday formalarni Web sahifangizda yaratish va unga tashrif

buyuruvchilarning to'ldirib sizga ma'lumotlarni avtomatik tarzda yuborishini o'rganamiz. Forma yaratish uchun <form> tagini ishlatishimizga to'g'ri keadi. <form> ochilish, </form> esa formamizni yopish demakdir. Bu tagning mahsus atributelari bor. Shu yerda bir maslahatim, formlarni web sahifangizda juda ko'p ishlatishingiz web sahifa foydalanuvchisiga yoqmasigi mumkin shunning uchun kamroq ishlatting. Shaxsan men forma to'ldirishni uncha yoqtirmiman.





1.3 Macromedia Dreamweaver 8 dasturining ishchi muhiti

Eng yuqorida Menyu qatori. Asosiy buyruqlar kiritiladi. Har bir Menyuda MS Office (Word, Exsel) dasturlari kabi o'z vazifalariga egadir.


File Edit View Insert Modify Text Commands Site Window Help

Masalan yangi dokument ochish kerak bo'lsa File→New, biror jadval yaratish kerak bo'lsa Insert→Table va hokazo.




Insert Bar

Insert Bar – bu qator sakkiz hil buyruqlar kiritish bo'limlaridan tashkil topgan. Har birining o'ziga yarasha vazifalari bor. Bularning aksariyat buyruqlari Menyu bo'limi orqali kiritilishi ham mumkin lekin, Insert bar orqali osonroqdir. Dreamweaver da ishlash tuchuntirilganidan so'ng bu barchasini veb sayt yaratish orqali o'rganib chiqamiz. Quyida faqat qisqacha to'htalaman. Har bir buyruqlar bo'limini tanlashda **Common** dagi pastga yo'naltirilgan strelkani bosish kerak bo'ladi. Va quyidagicha ro'yhat chiqadi.




Ushbu sakkiz hil buyruqlar kiritish bo'limini birma bir eng muhumlarini ko'rib chiqamiz. Siz ham Dreamweaver 8.0 dasturini ochib olib birga buyruqlarni kiritishni bir paytning o'zida mashq qilib boring. Quyida ko'rsatilingan rasmlarni aksariyatini bosishingiz bilan, ma'lum bir oynachalar shiqib keladi. O'sha oynachalarni to'ldirishingiz bilan, to'ldirgan ma'lumotlarizga binoan HTML Kodlar bo'limida o'z o'zidan qo'yiladi.

Masalan quyidagi birinchi tugma  ni olaylik. Unga bosganimizda ushbu oyna chiqadi.



Va uni quyidagicha to'ldiramiz.



Va siz uchun HTML dokumentimizning kodlar bo'limida quyidagicha kodlar paydo bo'ladi.

```
<a href="5.html" title="yo`nalish" target="_blank">Link ga kiring</a>
```



Common – eng ko'p qo'llaniladiganlarini o'zida mujassam etgandır.



Layout – asosan jadval tuzishda va unga ishlov berishda kerak bo'ladi.



Forms – Yuqorda ko'rsatilingan tugmalar faqat forma yaratishda ishlatiladi.



Text - Yuqorda ko'rsatilingan tugmalar faqat oddiy matnga ishlov berishda ishlatiladi. Ularning vazifalarini HTML darslaridan juda yahshi bilamiz.

Biz o'zi mavjud bo'lmagan, bir kafeni vebsaytini yaratish orqali Dreamweaver 8.0 ni yanayam yaxshiroq o'zlashtiramiz degan umiddaman. Kafe, "Café Townsend" deb nomlanadi. Biz bu vebsaytning barcha sahifalarini o'zimizning kompyuterga saqlab va to'plab boramiz, va darsimiz so'nggida bu tayyor sahifalarni Internetga joylashni o'rganamiz. Darslarni o'rganish mobaynida Internetga ulangan bo'lishingiz shart emas. Biroq **Masromedia Dreamweaver 8.0** kompyuteringizga o'rnatilgan bo'lishi shart. Har bir bajarishingiz kerak bo'lgan jarayonni son ketma ketligida → bilan belgilab boraman.


1→ Kompyuteringizning HARD DISS (D) ida **losal_sites** deb nomlanga yangi papka oching. Mening kompyuterimda bu papka ushbu manzilda joylashgan **D:\losal_sites**

2→ Dreamweaver 8.0 ni o'zini kompyuteringizga o'rnatilgan papkalari ichida **café_townsend** deb nomlangan yana bitta papka bor, faqat o'sha papkani **losal_sites** papkangiz ishiga ko'chirib oling (kesib emas). Menda bu papka ushbu manzilda joylashgan.

S:\Program Files\Masromedia\Dreamweaver 8\Tutorial_assets\safe_townsend

3→ Navbatdagi bajarishimiz kerak bo'lgan narsa "Manage site" orqali saytimizni faqat o'zimizgina ko'rishimiz mumkin bo'lgan holatda joylashdir. Buni sayt yaratishdan oldin birinchi bo'lib qilib olish kerak. Agar bunday qilinmasa Dreamweaver ning ba'zi funksiyalari bajarilmasligi mumkin. Shuningdek bu holda vebsayt yaratish ancha qulay. Buning uchun quyidagilarni bajaring.

1. Menyu qatoridan Site > Manage Sites ni tanlang. Va quyidagi oynashadan New > Site ni tanlang. Quyidagi rasmdagi Final ga e'tibor bermang.




2. Quyidagi oynada boshida e'tibor bergan bo'lsangiz Basis (oddiy) va Advanced (mukammal) turibdi bizga Advanced bo'limi kerak. Va uni quyida ko'rsatilinganday to'ldirib chiqig.

Local Info


a. Site name: Sayt nomi: **café Townsend** bo'lsin.

- b. Local root folder: **café_townsend** papkangiz joylashgan joyni ko'rsating.
- c. Default images folder: rasmlar joylashgan papka manzili.
- d. Links relative to: Dosument da tursin.
- e. HTTP address: Hozirsha bo'sh tura tursin, qandoq bo'lsa shundoq turadi.
- f. Cache: Enable cache.
- g. Ohirida OK ni bosing.


Remote Info, Testing Server, va hokazolarga hozirsha tegmay turamiz.




3. **OK** bosganingizda ushbu oynacha chiqadi va keyin **Done** ni bosing.



4. Files paneli Dreamweaver Dokumentingizning o'ng tarafida quyidagicha ko'rinishda ochiladi.




Endi qilishimiz kerak bo'lgan narsa bu veb sayt yaratishni boshlashdir. Yodingizda bo'lsin veb saytlar asosan jadvallar ichiga yasaladi (HTML darslarida o'tganmiz). Demak veb sayt yaratishdan oldin veb saytimiz qanday strukturada joylashishini biror qog'ozga chizib chiqishimiz kerak. Keyin unga qarab jadval tuzamiz. Darhol Dreamweaver ni ochib veb sayt tuzib ketilavermaydi. Keyin tayyor bo'lgan jadvalimizning har hil qismlariga har hil ma'lumotlarni o'rnatishimiz kerak bo'ladi. Biz quyida ko'rsatilgan veb saytni yaratishni boshlaymiz.



1 → Buning uchun birinshi navbatda yangi HTML dokument ochamiz va uni index deb saqlab qo'yamiz.


- a. File > New → Basis page > HTML
- b. File > Save As
- c. File name: index deb yozsangiz bo'lgani (index.html) kerak emas.
- d. Ohirida Save.




2 → Keyin Title: bo'limiga Café Townsend deb yozing. Vaqti vaqti bilan o'zingizni bilib klaviatura yordamida (Ctrl+s) dokumentingizni saqlab boring.  bu rasmdagi ushbu yulduzcha dokumentga so'nggi o'zgartirish kiritilgandan buyon saqlanmadi, degan ma'noni beradi.



3 → Yuqorida takidlaganimdek endi navbat Jadval tuzishga. Jadvalni 2 hil yo'l bilan tuzishimiz mumkindir.

Birinshisi:  dagi birinchi rasmga bosish orqali.


Ikkishisi: Menyu qatoridan Insert > Table orqali.



Jadvalni 3 ta qatorga 1 ta ustun qilib quyidagicha belgilab olamiz. Umumiy kengligini esa 700 piksel qilib olamiz

- a. Rows: jadval qatorlari soni 3 ta
- b. Columns: jadval ustunlari soni 1 ta
- c. Table width: Umumiy kengligini esa 700 piksel.


- d. Qolganlarini o'zgartirmaymiz.
- e. Header: None da tursin
- f. OK




4→ Sizda ushbu ko'rinishdagi jadval tuziladi. O'zingizni veb saytingizni yaratayotganingizda biron qator yoki ustun ortiqcha yoki kam bo'lib qolsa, o'chirib yoki qo'shishingiz mumkindir.




Agar kursoringiz jadval ishida tursa yashil shiziqlar bilan, har bir ustunlar kengligi va jadvalning umumiy kengligi ko'rinib turadi. Quyidagi misolda (tuzishingiz shart emas) 700 umumiy jadvalning kengligi, 140, 230, 330 lar esa ustunlar kengligidir. O'lchamlar piksel yoki foiz da bo'lishi mumkin. Kursorni jadvaldan tashqariga chiqarsingiz sichqonchani jadvalning o'ng tamoniga tashqariga bosish orqali, bu o'lcham ko'rsatkichlari yo'qoladi. Bu ko'rsatkichlar shunchaki sizga eslatma sifatidadir. Agar hohlasangiz bunday eslatmani o'chirib qo'yishingiz mumkindir. Uning uchun siz Menyudan **View > Visual Aids > Table Widths** ga bosishingiz kerak bo'ladi.




5→ Kursorni jadvaldan tashqariga sichqonchani jadvalning o'ng tamoniga bosish orqali chiqaring, klaviaturadan hech qanday tugmani bosmagan holda. Yana bitta ikkinchi jadvalni tuzamiz. Bu gal 1 ta qator, 3 ta ustun qilib belgilaymiz. Va qolgan o'lchamlarni o'zgartirmaymiz. OK bosning.



6→ Kursorni jadvaldan tashqariga sichqonchani jadvalning o'ng tamoniga bosish orqali chiqaring, klaviaturadan hech qanday tugmani bosmagan holda. Yana bitta uchunchi jadvalni tuzamiz. Endi esa 1 ta qator, 1 ta ustun qilib belgilaymiz. Va qolgan o'lchamlarni o'zgartirmaymiz. OK bosong.




Sizni umumiy hama jadvalingiz ushbu ko'rinishga egadir.




7→ Endi vaqtinchalik jadvalimizni o'lchamlarini belgilashni osonlashtirish maqsadida cell padding va cell spacing joylashtiramiz. Uning uchun shunshaki:
View > Table Mode > Expanded Tables Mode (F6)

8→ Kursorni yuqoridan eng birinchi qator ichiga joylagan holda, eng quyidagi

▼ Properties bo'limidan "H" ya'ni height (balandlik)ni **90** (piksel) qilib belgilaymiz.



9→ Kursorni yuqoridan ikkinchi qator ichiga joylagan holda, eng quyidagi ▼ Properties bo'limidan "H" ya'ni height (balandlik)ni **166** (piksel) qilib belgilaymiz.



10→ Kursorni yuqoridan uchinchi qator ishiga joylagan holda, eng quyidagi ▼ Properties bo'limidan "H" ya'ni height (balandlik)ni **24** (piksel) qilib belgilaymiz. Spu bilan birinchi jadvalimiz o'lchamlari tugaydi.



Birinchi Jadvalimizning o'lchamlari o'rnatilganidan so'ng umumiy ko'rinishi quyidagichadir.



11→ Endi ikkinchi jadvalimizning o'lchamlarini kiritamiz. Kursorni chapdan birinchi ustun ishiga joylagan holda, eng quyidagi ▼ Properties bo'limidan "W" ya'ni width (kenglik)ni **140** (piksel) qilib belgilaymiz.



12→Ikkinchi va uchunchi ustunlar uchun ham W ni 230 va 330 qilib mos ravishda belgilab olamiz. Va bizda umumiy jadvalimiz quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi kerak bo'ladi. H uchun hech qanday o'lcham kiritmaymiz chunki keyinchalik bu kataklar ichiga joylashtiradigan ma'lumotlarimizga qarab jadval balandligi o'zgarishi mumkindir.

--	--	--

13→ So'nggi jadvalimizning esa (H)ni 24 (pixel) qilib belgilab olamiz.

--

Eng so'nggida jami jadvallarimizning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'lishi kerak bo'ladi.

14→ Keyin Boshida ta'kidlaganim Standard Mode ga qaytishimiz kerak bo'ladi. Uning uchun ikki hil uslubni qo'llashimiz kerak bo'ladi.

Birinchisi: Menyu qatoridan View > Table Mode > Standard Mode


Ikkinchisi:  joydan Standard tugmachasiga bosishimizdur. Va Standard holatga o'tkazganingizdan so'ng dokumentingizni saqlang.

Image Placeholder va Rang berish

Veb-site yaratishimizda eng yuqori qatorda odatda biror rasm yoki animatsiya bo'lishi kerak bo'ladi. Hatto uni oldindan yaratmagan bo'lsangiz ham u uchun joy ajratib


qo'yishingiz kerak, va u joy odatda image placeholder (rasm joyi deb nomlanadi) bo'ladi.

1→ Jadvalimizning eng yuqori qatoriga kursorni joylagan holda dokumentimizning Menyu qismidan Insert > Image Objects > Image Placeholder ga kiramiz.



2→Undan so'ng quyidagi oynacha chiqib keladi va uni quyidagicha to'ldirishimiz kerak bo'ladi.

- a. Name: banner_graphic
- b. Width: 700
- c. Height: 90
- d. Color: #993300
- e. Alternative text: esa bo'sh qola tursin.
- f. Va ohirida OK




3→Endigi qilishimiz kerak bo'lgan ish, bu jadvalimizning ba'zi kataklariga rang berib chiqishimizdir. Uning uchun birinchi navbatda uch ustunlik jadvalimizning birinchi ustuniga kursorni joylaymiz.



4→Biz shu holda umumiy katakni tanlashimiz kerak bo'ladi, uning uchun ishlash panelimizning quyi qismidagi <td> belgisini tanlashimiz kerak bo'ladi





5→ Dokumentimizning eng quyi qismidagi Properties bo'limidan background color (bg) dan #993300 rangini tanlang va Enter ni bosing. U quyidagich ko'rinishga ega bo'lishi kerak bo'ladi.




6→ Endi esa ikkinchi ustunni tanlashimiz kerak bo'ladi va u uchun biz yana kursorni katak ichiga joylaymiz va <td> ni tanlaymiz, #F7EEDF rangni bg color uchun belgilaymiz.

7→ Uchunchi ustun uchun ham (6→) ni takrorlaymiz. Va jadvalimiz ushbu ko'rinishga ega bo'ladi.




8→ Endigi qilishimiz kerak bo'lgan narsa bu butun bir sahifamizning o'zini Page Properties yordamida background rangini qora (#000000) qilib belgilab olishdir, siz shuningdek text turi, matn o'lchami va hokazolar uchun ham bu yerda moslab olishingiz mumkindir, biroq hozircha faqat rangini o'zgartiramiz. Page Properties oynasini ikki yo'l bilan ochishimiz mumkindir.

Birinchisi: Albatta Menyu qatoridan Modify > Page Properties.



Ikkinchisi: Dokumentimizning quyi qismidagi Properties bo'limidagi, Page Properties tugmachasi yordamidadir, u tugmacha yuqoridagi rasmda o'ng-quyi burchakda joylashgandir.



9→Rangni tanlab bo'lganimizdan keyin boshqa hech narsani o'zgartirmagan holda OK ni bosamiz. Va sizning butun bir sahifangiz qora rangga aylandi. Shu yerda dokumentingizni yana bir bor saqlab qo'ying.



Veb sahifamizni Matnini to'ldirish

Bu darsda qilishimiz kerak bo'lgan narsa jadvalimizning ichini asosiy ma'lumotlar bilan to'ldirishdir. Dars so'nggida bizning sahifamiz quyidagicha ko'rinishga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Keyin biz CSS document yaratib HTML bilan bog'lab biriktiramiz shunda matnimiz yanayam ko'rkamlashadi.

The screenshot shows a website for 'café TOWNSEND' with the tagline 'Nouveau World Cuisine'. The top section features a 'Summer salad' with a description: 'Butter lettuce with apples, blood orange segments, gorgonzola, and raspberry vinaigrette.' Below this is a video player with a play button and a progress bar. To the right of the video is a text block describing the chef and the restaurant's history. The bottom left has a navigation menu with links for 'Home', 'Chef Ipsum', 'Articles', 'Special Events', 'Locations', 'Menu', and 'Contact Us'. The bottom right has a logo and the text 'café TOWNSEND, a fictional company.'

café TOWNSEND

Nouveau World Cuisine

Summer salad

Butter lettuce with apples, blood orange segments, gorgonzola, and raspberry vinaigrette.

[Next](#)


[Home](#) [Chef Ipsum](#) [Articles](#) [Special Events](#) [Locations](#) [Menu](#) [Contact Us](#)

Café Townsend's visionary chef and founder leads the way in a culinary revolution. Proclaimed by many to be the best chef in the world today, Chef Ipsum blends earthy seasonal flavors and bold ingredients to create exquisite contemporary cuisine.



The name Café Townsend comes from our first restaurant, located in a historic building on Townsend Street in San Francisco, where we opened the doors in 1992. We've replicated the elegant interior, exceptional service, and world class cuisine in our restaurants around the country.

CT café TOWNSEND, a fictional company.


1→ Jadvalimizning eng yuqoridagi bo'limiga (banner_graphic) ga ikki marta sichqonchani bosing. Va images papkasidan banner_graphic rasmini tanlang, va OK ni bosing. Jadval tashqarisiga sichqonchani bosish orqali umumiy ko'rinishini ko'ring. Agar browserda ko'rish niyatingiz bo'lsa F12 ni klaviaturadan bosing. Va shu yerda yana bir dokumentizni saqlang.



2→ Birinchi jadvalimizning yuqoridan uchunchi qatori ichiga kursorni joylang. Menyu qismidagi Insert > Image dan body_main_header.gif faylini tanlang va OK ni bosing. Ushbu holat quyida ko'rsatilingandir.



3→ Quyidagi ushbu oynachaga e'tibor bermagan holda shunchaki OK ni bosing.




4→ Uchunchi jadvalimizning qatori ichiga kursorni joylang. Menyu qismidagi Insert > Image dan body_main_footer.gif faylini tanlang va OK ni bosing. Keyingi chiqqan oynaga ham OK ni bosing. Siz shuningdek Files bo'limidan rasmni sichqoncha yordamida ushlab katak ichiga olib kelib tashlash yordamida ham rasmlarni joylashingiz mumkindir. Ushbu holat quyida ko'rsatilingandir.



5→ Dokumentingizni shu yerda yana bir saqlab oling. Veb sahifangiz umumiy ko'rinishi quyidagichadir.




6→ Uch-ustunlik jadvalimizning ikkinchi ustuniga kursorni joylagan holda Assets Bo'limidan rasm joylash uslubini ham bir ko'rib o'tamiz. Buning uchun avval katak ichidagi ma'lumotni vertikal joylashuvini yuqoridan va gorizonta joylashuvini esa markazdan qilib belgilaymiz. Uning uchun kursor katak ichida turgani holda Properties bo'limidan ushbu ko'rsatkichlarni tanlaymiz.




So'ngra quyidagi ko'rsatilingan rasmni sichqoncha yordamida ushlagan holda shu katakga joylab, chiqib kelgan oynachaga OK ni bosamiz.




Sizing sahifangiz ushbu ko'rinishga ega bo'lishi kerak.




7→ Endigi navbat Flash faylgadir. Flash fayllar odatda veb saytlarda juda keng qo'llaniladi, ular rasmlarni o'zi navbatma navbat almashinib turishini ta'minlaydi, bunday flash fayllar tayyorlash Dreamweaverda mumkin emas, mahsus dasturlarda tuziladi, biroq biz hozircha tayyor yasalganini olib joylaymiz, broq vaqti kelib bularni ham o'rganamiz. Buning uchun birinchi jadvalimizning ikkinchi qatorini tanlaymiz va kursorni joylaymiz. Insert > Media > Flash yordamida flash faylni tanlaymiz.




U fayl quyida ko'rsatilgani kabi bo'ladi va OK ni bosing, keying chiqqan oynachaga OK ni bosing.



8→ Sizda quyidagicha ko'rinish paydo bo'ldi.




Biroq flash faylini ko'rish uchun uni sichqoncha bilan jadval ichida yuqorida ko'rsatilingan holda tanlab Properties bo'limidan ni bosishingizga to'g'ri keladi. Va quyidagi natijani olasiz.



9→Endi quyidagi rasmni chap tarafiga joylashtiring.



11 → Va Insert > Media > Flash Video ga kiring.




12 → Ushbu oyna huddi ko'rsatilingani kabi to'ldirilsin. Va OK

- a. Video type: Progressive Download Video
- b. URL: cafe_townsend_home.flv
- c. Skin: Halo Skin 2
- d. Width: 180
- e. Height 135

Constrain: eni va bo'yi o'lchamining nisbatini belgilash uchun


Auto Play: web sahifa ochilganda o'zi ishga tushsinmi yoki vebsayt foydalanuvchisi o'zi play ni bosgandami degan tushunchani belgilash uchun.

Auto rewind: video flash tugaganda yana boshiga qaytarish uchun.




Endi veb sahifamizga text kiritishni boshlaymiz.

1 → Files panelida sample_text.txt dokumntimi sichqonchni ikki marta bosish orqali Dreamweaverda oching.





2 → Matni qora qilib ko'chirgan holda uch-ustunlik jadvalimizning uchunchi ustuniga joylang. Va shu yerda yana bir bor dokumentingizni saqlab qo'ying.




3 → Joylangan matni, vertikal joylashuvini kursorni matn ichida turgani holda Properties bo'limidan Vertikal ni Top qilib oling. Horizontal bo'limiga tegman. Endi F12 yoki boshqa yo'l bilan Internet Explorer da website ko'rinishida ochib ko'ring.




CSS dokumentini HTML dokumentga bog'lash
So'ngida siz yaratgan veb site ushbu ko'rinishda bo'lishi kerak.



Bu autoplayning yaratish jarayoni. Bunda yangi loyiha yaratishimiz mumkin yoki yaratilgan loyihani chaqirib olishimiz mumkin.




Bu bizning birinchi varaqimiz bo`ladi. Shunga o`xshagan bir nechta varaqlar yaratamiz.



Bu vedio qo`yish jarayoni



Bu autoplayda yaratilgan loyihaning ko`rinishi



Bunda pdf formatdagi dokumentni yaratish ko`rsatilgan. Buning uchun **Adober reader** programmasini o`rnatish kerak. Shundagina ishlaydi.

XULOSA

Men bu loyihada Macromedia dreamweaver 8 dasturi haqida batafsil bo`masa ham bafurcha tushuntirib o`tdim. Uning qanday ishlashi qanday dastur qanday qulayliklarga egaligi haqida gapirib o`tdim. Forma nima forma qanday to`ldirilishi haqida batafsil tushuntirib o`tdim. Men bu loyihadan olgan narsam Macromedia dasturlardan foydalangan holda loyiha yaratdim. Bu menga bilimim qanday darjadaligini va bu dasturlardan qanaqa foydalanishimni o`zim bilib oldim. Bu loyiham sizga ham yoqadi degan umiddaman .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Bu loyihani tayyorlashda Macromedia Dreamweaver 8 dasturi yordamida qildim. Nazariy qismlarni tayyorlashda WORD, CAMTASE, POWER POINT va albatta kompyuter kerak bo`ldi. Internetdan www.uzbekhtml.com sayti yordam berdi shu saytga kirib ma`lumotlarni topishga muvaffaq bo`ldim.

Google.uz

Dasturchi.uz

Autoplay dasturi.